

**KIMYO DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING  
O'RNI****Xikmatullayev Izzatullo Lutfulloyevich***Buvayda tumani 31-maktab kimyo fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Kimyo fanidan mavzularni o'quvchilarga tushuntirish va darsni tashkil etishda mavzuga mos didaktik o'yinlarning tanlanishi darsni samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda didaktik o'yinlar o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.*

**Kalit so'zlar:** *didaktik o'yinlar, zanjirli reaksiya, chaqirilmagan mehmon, sinkveyn tuzish*

Bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri yangicha tafakkur, ijodiy fikrlash, intellektual salohiyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashdir. Ta'limgarayonida yoshlarni o'qish va o'qitishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda ta'limgtexnologiyalaridan bo'lgan o'yin usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

O'quvchida mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda o'qituvchi bilan tahsil oluvchi o'zaro munosabatlarini o'zgartirish masalasi muhimdir. Chunki bu masala bevosita yoshlarimiz ruhiyatiga, ongiga, tafakkuriga ta'sir etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda ta'limga maqsadi, prinsiplari, tashkil etish shakllari, mazmuni, metodlari, vositalari, natijalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi ta'limga komponentlarini o'zaro bog'liq tizim sifatida didaktika tadqiq qiladi. Didaktika o'ziga xos tadqiqot obyektiga ega bo'lganidek, uning tushunchalar tizimi mayjud. Bu tushunchalarda didaktik obyektning muhim xususiyatlari o'z ifodasini topadi.

O'quvchilarning aqliy rivojlanishiga, bilim, mahorat, ko'nikmalarga ega bo'lishiga, aqliy mehnat madaniyatiga, ilmiy dunyoqarashiga ega bo'lishi uchun o'qituvchi va o'quvchi ikki tomonlama didaktikaning maqsad va vazifalari hisoblanadi.

Didaktik o'yin – ta'limga beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiylar maqsadlarga erishishga ya'ni o'tilgan o'quv materiallarini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi. Har bir didaktik o'yin o'z navbatida quyidagi komponentlardan tuziladi: o'yin maqsadi, qoidalari, jihoz, mazmuni natijasi.

Didaktik o'yin bu o'quvchilarni bilimga qiziqtiruvchi, bilim doiralarini kengaytiruvchi, ularda hozirjavoblik xususiyatlarini shakllantiruvchi omillardan hisoblanadi. Chunki o'yinda o'quvchi faol fikr yuritadi, o'zida ijodiy erkinlik sezadi.

Didaktik o'yinlar texnologiyalari o'quvchi faoliyatining faollashtirish va jadallashtirashga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijobjiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlar o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tatqiq qilish hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash axloq – odob o'rgatish, nutq o'stirish til o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlanishga yo'naltirilgan o'yinlarga ajratiladi.

Didaktik o'yinlardan amalda foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo'lgan ta'lif - tarbiyaviy maqsadlarini amalga oshirish ko'zda tutiladi. Turli o'quv fanlariga oid didaktik o'yinlar mavjud bo'lib, ular shu fanlarni sifatli o'rgatish maqsadlariga xizmat qiladi. Bundan tashqari o'quvchilarini sodda ilmiy izlanish uslublari bilan tanishtirish, ilmiy farazlar tuzilishini o'rgatish; o'quv materiallarni o'quvchilarining yosh xususiyatlari va bilim darajasiga mos kelishi; materiallarni boshqa fanlardan olgan bilimlarga mosligi; har bir sinfda o'rganiladigan va o'zlashtirilgan bilimlar oldingilari bilan uzviy bog'langanligini ta'minlash; zaruriy kimyoviy bilimlar mazmunini har bir sinf uchun bo'limlar bo'yicha aniqlash; kimyoviy nazariy g'oyalarni bayon etishda uning eksperimental fan sifatida o'qitishga imkon yaratish kerak.

Didaktik o'yinlarni ta'lif jarayoniga tadbiq etishda ular fanning maqsadi, vazifasi va xususiyatiga qarab tanlab olinadi. O'qituvchi o'yinni o'tkazishdan oldin o'quvchilarini ogoh etib, o'yin mavzusi formasi va uning bajarilish muddati bilan tanishtirishi shart. Bu bilan o'qituvchi o'tilgan darslarni takrorlab, o'quvchilarini baholaydi. Barcha javoblar esa dars oxirida baholanadi. Dars so'ngida o'qituvchi o'quvchilarga o'yinning yaxshi va ijobjiy tomonlarini ta'kidlab o'tishi lozim. Didaktik o'yinlarni o'tkazish paytida o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni o'qituvchilar bilan birgalikda o'yin tugallangandan keyin ko'rsatadi va keyingi safar shunday kamchiliklarga yo'l qo'ymasligini ta'kidlaydi.


Dars paytida yaxshi tashkillangan o'yin turlari mavzu maqsadi va mazmunini kengroq ochishga, o'quv materialining yodida uzoq vaqt qolishiga yordam beradi.

O'quv jarayonida didaktik o'yinlar o'quvchilarining oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqib:

1. Yangi mavzular tushuntirishdan oldin (bunda o'yin muammoli vaziyat sifatida)
2. Yangi mavzuni tushuntirish vaqtida (o'quvchilarining diqqatini jalg qilish maqsadida)
3. Mavzuni mustahkamlashdan oldin, shuningdek o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakasini tekshirish vaqtida (o'quvchilarni o'ziga hos o'yinga jalg etib, kichik guruuhlar xosil qilish va raqobatni yuzaga keltirish) qo'llash mumkin.

Kimyo darslarida har bir mavzu uchun mos didaktik o'yin usullarini tanlashda mavzuning o'rgatish uchun ajratiladigan vaqt ham muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi didaktik o'yinlarni kimyo fanida qo'llash uchun tavsiya etish mumkin:



**"Zanjirli reaksiya"** o'yini. Bu o'yin 7-sinflarda Kimyoviy reaksiya turlari mavzusida o'quvchilarga tarqatma material sifatida tarqatiladi. Bu o'yin tarqatma materialini o'qituvchi A-4 formatli qog'ozga tayyorlab kelishi kerak bo'ladi. Darsning o'tilgan mavzuni takrorlash yoki yangi mavzuni mustahkamlash qismlarida qo'llash mumkin. O'yin tartibiga ko'ra, zanjirning bo'sh qolgan qismlariga kimyoviy modda formulasi yoki "+" va "→" belgisini kim to'g'ri va tez xatosiz bajarib (qizil-5 baho uchun, ko'k 4-baho uchun, sariq 3-baho uchun qo'llangan) kartochkaga ega bo'lishi kerak bo'ladi.

**Chaqirilmagan mehmon:** Bu didaktik o'yin ham qolgan o'yinlar kabi o'quvchilarni kimyo faniga qiziqishini ortiradi. O'yinda ma'lum bir mavzuga <sup>4</sup>tegishli bo'lмаган тушунча yoki belgi shu mavzuga tegishli bo'lган тушунча va belgilarni orasiga kiritilgan bo'ladi. Ushbu *chaqirilmagan mehmonni* o'quvchilar tezlik bilan aniqlashlari lozim. Buning uchun o'quvchilar darsga e'tiborli bo'lib o'tirishlari lozim. O'qituvchi bu o'yin bilan nafaqat o'quvchilarni bilimini baholaydi, shu bilan birga darsga qanchalik e'tibor bergenlarini ham aniqlaydi. O'yinni jamoa, kichik guruhlarda qo'llash mumkin. Didaktik materialni esa vatman yoki A-4 formatli qog'ozga tayyorlash mumkin.

**K Ba Au Li Mg La Pb Mo**

**Sn Na Cd Ti Po Ag Fr Bi**

**Mn Al Co Ni Hg Os As W Cr**

Bu yerda metallar berilgan bo'lib *chaqirilmagan mehmon* metallmaslardan biri **As**-mishyak edi.

**Sinkveyn tuzish** – murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir necha so'z orqali yaqqol, yorqin ifodalash malakasi bo'lib, bu jarayon mavzuni puxtarloq o'zlashtirish, ma'lumotlarni yaxshiroq anglashga yordam beradi. Sinkveyn tuzish murakkab jarayon bo'lib, uni samarali tashkil etish uchun muayyan qoidalarga amal qilish talab etiladi. Odatda, sinkveyn tuzish besh bosqichli harakatlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladi: 1-Mavzu bir so'z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi). 2- Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (odatda 2 ta sifat tanlanadi). 3- Mavzu doirasida tashkil etiladigan xatti-harakat uchta so'z bilan ifodalanadi (3 ta fe'l yoki ravishdosh yoziladi). 4-Mavzuga nisbatan munosabatni anglatadigan to'rtta so'zdan iborat fikr yoziladi (4 ta so'zdan iborat jumla yoziladi). 5-Mavzu mohiyatini takrorlovchi, ma'nosi unga yaqin bo'lgan bitta gap yoziladi (mavzuga doir sinonimlar asosida gap yoziladi).

Misol uchun, Kalsiy metaliga "sinkveyn" tuzamiz:

1. Kalsiy
2. Qattiq va dag'al,
3. Oksidovchi-qaytaruvchi, bo'larmish,
4. Kislorodga tushib yonsagar metall
5. Eng aktiv elementlar qatoridan joy olgan metall.

Kimyo darslari mavzularni o'qitishda o'quvchilarga tushuntirish va esda qolarli dars tashkillashda didaktik o'yinlar mavzuga mos tanlanishi va bu o'yin mavzuni o'quvchiga yetkazib berishga xizmat qilishi kerak. Shunday ekan, didaktik o'yinlar o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. M. Nishonov, Sh. Mamajonov, V. Xo'jayev. Kimyo o'qitish metodikasi. T., O'qituvchi, 2002.
2. R. Ishmuhammedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T., TDPU. 2004.
3. N.G'. Rahmatullayev, H.T.Omonov, Sh.M.Mirkomilov. Kimyo o'qitish metodikasi. T., Jizzax DPI 2013.